



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xabiba Naimovna Oblomuradova

TDYU dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

MANTIQIY FIKRLASHNING YURIST FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Globallashuv va axborotlar ko'lami nihoyatda kengayib borayotgan hozirgi davrda axborot bosimining kuchliligi har birimizdan axborotlardan himoyalaniшни mantiqiy fikrlash orqali muhim va foydali bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishni talab etadi. Bu esa mantiqiy fikrlash jarayonida kechadi. Maqolada huquqshunos faoliyatida mantiqiy fikrlash ko'nikmasining ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Mantiq, fikrlash, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyat, muammo, gipoteza, nazariya, globallashuv, axborot ko'lami, aniqlik, izchillik, ziddiyatsizlik, asoslanganlik.

Globallashuv va axborotlar ko'lami nihoyatda kengayib borayotgan hozirgi davrda axborot bosimining kuchliligi har birimizdan mazkur axborotlardan himoyalaniшни, ularni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmasdan, tanqidiy va kreativ yondashuv asosida ko'rib chiqishni, mantiqiy fikrlash orqali muhim va foydali bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishni talab etadi. Bu esa mantiqiy fikrlash jarayonida kechadi.

Mantiq – nafaqat fikrlash qobiliyati, balki izchil va to'g'ri mulohaza yuritish hamdir. Ya'ni insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida tartibli, aniq, asosli ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi. Inson tafakkuri mantiq qonunlaridan qat'iy nazar o'zi mantiqiy qonunlarga bo'ysungan ravishda mavjud bo'ladi. Ko'pchilik imlo qoidalarini bilmagan holda to'g'ri gapirganlari kabi mantiq qonunlarini bilmay ham to'g'ri fikrlaydilar. Lekin bundan mantiqning amaliy ahamiyati yo'q degan xulosa kelib chiqmaydi. "Fikrlash – shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi"[11]. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o'zida mujassamlashtiradi[12]. Fikrlash insonga haqiqat hodisalari o'rtasidagi aloqalarni topish

imkonini beradi, lekin aniqlangan bog‘liqlik haqiqatan vaziyatning to‘liq holatini aks ettirishi uchun u ob‘ektiv, to‘g‘ri yoki boshqacha aytganda, mantiqqa tayangan, mantiq qonunlariga mos bo‘lishi kerak. Mantiqiy fikrlash – fikrlashning oliy pog‘onalaridan biri bo‘lib[13], izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog‘lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o‘zida aks ettiradi[14].

Demak, mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko‘rib, eshitib, bilib, his qilib va anglab olingan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatadi[16]. “Mantiqiylik – tafakkurning yozma va og‘zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir”[1]. Bu jarayonda ayniyat, ziddiyat, istisno hamda yetarli asos qonunlari o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Mantiq qonunlari fikrning to‘g‘ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo‘lishini ta‘minlaydi[15].

Inson tafakkuri butun insoniyat tafakkurining rivojlanishi bilan vositachilik qiladi. Fikrlash – bu “koinotning inson olamidagi kichik bir ko‘rinishi”dir[2]. U o‘ziga xos bir muhitda shakllanadi, bu yerda boshqalarning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish hamda ular bilan doimiy aloqada bo‘lish talab etiladi[17].

Mantiqiy fikrlashning asosiy talablariga aniqlik, izchillik, ziddiyatsizlik va asoslanganlik kiradi[3].

Aniqlik. Inson tafakkuriga xos bo‘lgan muhim jihatlardan biri fikrning aniq ifodalanishidir. Voqelikdagi har bir narsa va hodisa o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Ana shu jihat ularni bir-biridan farqlashga va o‘ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, narsa va hodisalarning inson tafakkurida aniq aks etishini, har bir fikr, mulohazaning aniq, ravshan ifodalanishini ta‘minlaydi. “Fikrning aniq ifodalanmasligi fikrdagi mantiqning sayozlashuviga, mantiqsizlikka olib keladi”[18]. Masalan, ob‘ektiv va suyu‘ektiv sabab tushunchalarining mohiyatini aniqlab olmasdan birorta hodisaning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida aniq fikr yuritib bo‘lmaydi.

Izchillik. Olamdagi har bir narsa va hodisaning joylashishi, o‘zaro munosabati va bog‘lanishida muayyan tartib, ketma-ketlik va izchillik mavjud. Narsa va hodisalarning bu xususiyatlari fikrlash jarayonini izchil ifoda etilishida namoyon bo‘ladi[20]. Tafakkurga xos bo‘lgan izchillik har bir fikrning muayyan tartibda o‘zaro bog‘langan holda bayon etilishini talab qiladi. “Fikrdagi izchillikning buzilishi fikr ma‘nosining o‘zgarishiga olib keladi va bunday fikrni tushunish qiyinlashadi”[19]. Masalan, jinoyat qonunchiligini o‘rganmasdan turib, tergov mohiyatini tushunish qiyin.

Ziddiyatsizlik. Atrofimizdagi har bir narsa va hodisa bir vaqtning o‘zida biror sifatiga ko‘ra ikki zid belgiga ega bo‘lmaydi. Ya‘ni, biror buyum bir vaqtning o‘zida ham bor, ham yo‘q bo‘lolmaydi[21]. Fikrda mantiqiy ziddiyatning yuzaga kelishi uning chalkash, noaniq, tushunarsiz bo‘lishiga olib keladi[22]. Masalan, inson bir vaqtning o‘zida ham axloqli, ham axloqsiz bo‘lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo‘ladi.

Asoslanganlik. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlar tafakkurga xos bo‘lgan asoslilik belgisining ob‘ektiv negizidir[23]. Shu bois, inson fikrlash jarayonida iloji boricha asoslangan mulohazalarni bayon etishga harakat qiladi. Masalan, tafakkurning yetarli asos qonuni talabiga binoan har qanday narsa va hodisa haqida aytilgan fikr asoslangan bo‘lishi kerak. “Eldor Shomurodov – futbolchi” degan mulohazani “U Italiyaning Roma klubi hujumchisi” degan fikr bilan asoslash mumkin.

Bir mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Ishonchli va yetarli dalillarni ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Ulardan biri hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir[24].

Huquqshunosning nutqi, ilmiy-pedagogik, rahbarlik faoliyati mantiqiy fikrlashga asoslanishi kerak. Shundagina faoliyatning barcha sohalarida mantiqiy ketma-ketlik, izchillik va muayyan samaraga erishish mumkin.

Har bir inson kichik yoshidan boshlab mantiqiy fikrlashni rivojlantira boshlaydi[25]. Insonning psixofiziologik xususiyatlari turli xil bo'lganligi bois, bu jarayon har bir insonda bir xil kechmaydi. Biroq mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo'l-yo'riqlari va usullari yuzasidan foydali bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

Fikrlash muammoli vaziyat vujudga kelgan vaqtdan boshlanadi[4]. Negaki, inson vaziyatni muammo sifatida tushunadi va uning yechimi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. O'sha paytdan boshlab aqliy faoliyatga safarbar qilinadi va muammoni hal qilish uchun o'z harakatlarini muayyan ketma-ketlikda amalga oshiradi. Mantiqiy fikrlash har doim muammoni hal qilish bilan bog'liq va u inson tomonidan ma'lum bir ixtiyoriy harakatlar bilan birga keladi. Muammoli vaziyatning yo'qligi fikrlash jarayonini stereotipga asoslangan xatti-harakatlarga yaqinlashtiradi[5]. Fikrlash har doim maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Muammolar hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar bo'lib, ular muammoli vaziyat yuzaga kelishi natijasida qo'yiladi[6]. Muammoli vaziyat yangi qayd qilingan faktlarni mavjud tushunchalar, qonunlar, printsiplar yordamida tushuntirish imkoni yo'q paytda yuzaga keladi[28]. Bunday hollarda masalani qo'yish, muammoni qo'yish va ularni hal qilishning yangicha usullarini qidirish lozim bo'ladi.

Muammoli vaziyatga yechim taqdim qilish quyidagi ketma-ketlikni o'z ichiga oladi:

✓ Muammoni bayon qilish va qidiruv zonasini cheklash. Muammoning ifoda qilinishi shakli savoldir. Savol aniq qo'yilgan bo'lishi kerak. Savollar turli xil bo'ladi. Ba'zilar mavjud fakt haqidagi bilimlarni to'ldirishga xizmat qilsa, mavjud tasavvurlarni aniqlashtirsa, boshqalari butunlay yangi ma'lumotlar olishga xizmat qiladi[29]. Xuddi javoblar kabi. Savolga bevosita va bilvosita javob berish mumkin.

Muammo biror sohaga oid yangi faktlarni to'plash jarayonida ularni eski bilimlar bilan izohlash mumkin bo'lmaganda, o'zlarining yangicha bayonini talab qila boshlagan paytda tug'iladi[9]. Muammo yangi dalil va ma'lumotlarni to'plash, ularni yangicha izohlash asosida hal qilinadi. Muammoni hal qilish jarayonida ma'lum faraz yoki gipotezalar quriladi va asoslanadi.

✓ Gipoteza qurish va uni tekshirish. Gipoteza (yunon. "taxmin", "taxminiy bilim", "faraz")[7] tekshirilayotgan ob'ekt yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi isbotlanmagan ilmiy bilish shakli. Gipotezalar bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga zid, bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini inkor qilishi mumkin[8]. Ilmiy bilishda paydo bo'lgan gipotezalar keyingi tadqiqotlarda tekshirilib, ularning haqiqatligi tasdiqlanadi yoki xatoligi isbotlanib, rad qilinadi. Gipotezaning haqiqatligi isbotlansa, u nazariyaga aylanadi.

- ✓ Gipotezani sinab ko‘rishdan keyingi harakatlar va natijalarni aks ettirish. Nazariya haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid ma‘lum g‘oyalari, aksiomalar, qarashlar, qonunlar va printsiplarning muayyan tizimidir[8]. Nazariya ma‘lum bir sohaga oid mavjud bilimlarni umumlashtirib, predmet yoki hodisa haqida konkret bilim hosil qilishga imkon beradi[27]. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi amaliyot bergan yangi dalillarni izohlash, o‘rganilayotgan predmet yoki hodisalarning mohiyatini teranroq bilish, ro‘y beradigan voqea va hodisalarni oldindan ko‘ra olishdan iborat[10].

Mantiqiy fikrlash harakat bilan chambarchas bog‘liq[30]. U orqali inson haqiqatni anglaydi, unga amal qiladi, dunyoni tushunadi, uni o‘zgartiradi. Harakat fikrlashning asosiy shaklidir[26].

Huquqshunos uchun mantiqiy fikrlash mantiqiy izchil, asoslangan nutqni ijod etish, huquqiy muammolarni aniqlash hamda ularga noodatiy yechim taqdim etish, qonun loyihasini tayyorlash, huquq to‘g‘risidagi yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, opponentlarning asoslanmagan fikrlarini rad etishga yordam beradi. Mazkur ko‘nikmani turli xil usul va yondashuvlarini amalda qo‘llash orqali har bir huquqshunos sohaning yetuk mutaxassisiga aylanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. Aldisert R.J. (2001). *Logic for Lawyers. A Guide to Clear Legal Thinking*. 3rd edition. National Institute for Trial Advocacy, USA. 84-104 p.
2. Ломиворотов М.М. *Логика для юристов. Учебное пособие в схемах и упражнениях.* – Волгоград.: ВолгГТУ, 2006. 11-24 с.
3. Шарипов М., Файзихўжаева Д. *Мантиқ. Ўқув кўлланма.* – Фафур Фулом: Тошкент, 2004. 5-16, 111-211 б.
4. Юлдашева М.М., Шеркузиева Н.У. *О правилах правильного мышления в мыслительных законах. Учёный XXI века, международный журнал.* №4-2(29), 2017. 15-17 с.
5. Khalimovich, O. N., Rasuljanovna, I. N., & Shakarovich, G. I. (2020). The Purpose and Outcome of Diplomatic Missions in the II-I Centuries Between Central Asia And China. *Journal of Critical Reviews*, 7(9), 126-128.
6. Khalimovich, N. O. (2022). THOSE WHO ARE CREATED FOR WOMEN ARE THE CONDITIONS AND PROVIDE THEM WITH WORK. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 515-517.
7. Oblomuradov, N. K. (1993). *Agrarnaia politika v Uzbekistane, 1970-1990 gg.* Uzbekiston.
8. Обломуродов, Н. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ ҲАҚИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 154-159.
9. Oblomuradov, N. (2021). INVESTMENT BASIS AND DEVELOPMENT TRENDS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY (2767-472X)*, 2(06), 1-6. <https://doi.org/10.37547/history-crjh-02-06-01>

10. Oblomurodov, N. K. (1993). *Agrarnaia politika v Uzbekistane, 1970-1990 gg.* Uzbekiston.
11. Обломуродов, Н. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ ҲАҚИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 154-159.
12. Oblomurodov, N., & Tolipov, F. (2009). *Özbekistonda Soliq Tizimi. Iqtisod-Moliya uyuini, TaGkent.*
13. Oblomurodov, N. K. (1993). *Agrarnaya politika v Uzbekistane. Tashkent: Uzbekistan.*
14. Обломуродов, Н., Ҳазраткулоов А, Т. Ф., & Турсунов, Н. (2011). *Ўзбекистон тарихи.*
15. Oblomurodov, N., & Tolipov, F. (2009). *History of taxes in Uzbekistan.*
16. Oblomurodov, N., Khazratkulov, A., Tolipov, F., & Tursunov, N. (2011). *Istoriya Uzbekistana.*
17. Обломуродов, Н., & Толипов, Ф. (2009). *Ўзбекистонда солиқлар тарихи. Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA.*
18. Oblomurodov, N., & Tolipov, F. (2009). *Özbekistonda Soliq Tizimi. Iqtisod-Moliya uyuini, TaGkent.*
19. Обломуродов, Н. (1994). *Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. Опыт, уроки и проблемы.*
20. Tojiboeva, D. O. (2021). "MASS CULTURE" AS THE MOST DANGEROUS WEAPON OF IDEOLOGICAL PRESSURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1106-1111.
21. Таджибаева, Д. (2020). СВОБОДА СОВЕСТИ–ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ. *Review of law sciences*, 1(Спецвыпуск).
22. Таджибаева, Д. (2017). ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОЙ СФЕРЕ. *Review of law sciences*, 1(1), 56-61.
23. Tadjibaeva, D. (2017). Ensuring national security in the information sphere. *Review of law sciences*, 1(1), 8.
24. Tadjibaeva, D. O., & Oblomurodova, K. N. (2020). Religious tolerance is a symbol of peace and enlightenment. *Elementary Education Online*, 19(4), 804-809.
25. Ozodovna, T. D. (2021). "MASS CULTURE" AS THE MOST DANGEROUS WEAPON OF IDEOLOGICAL PRESSURE.
26. Xaitova, N. N. (2021). EDUCATIONAL EVALUATION OF AN INTERACTIVE MULTIMEDIA LEARNING PLATFORM AND PURPOSE OF MODERN EDUCATION TYPES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 97-105.
27. Naimovna, X. N. (2021). LINGUISTIC FEATURES OF PHONETIC PROCESSES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 588-590.

28. Naimovna, X. N., & Kizi, M. N. Y. (2021). Methods of Teaching English to Students Majoring in Non-Foreign Language. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 1(12), 166-169.
29. Yuldoshalikizi, M. N. ., & Naimovna, K. N. . (2022). Modern Methods and Technologies of Teaching English to Students of Economic Universities. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 405-409. Retrieved from <http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/159>
30. Naimovna, X. N., & Kizi, M. N. Y. (2021). Methods of Teaching English to Students Majoring in Non-Foreign Language. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 1(12), 166-169.